

Strategik sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar to'plami imzolandi



Oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, hujjatlarni imzolash va almashish marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining ikkinchi yig'ilishi yakunlari bo'yicha Qo'shma bayonot imzoladilar.

Bundan tashqari, ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari darajasida ko'p qirrali O'zbekiston-Turkiya hamkorligini yanada kengaytirishga qaratilgan 9 ta hujjat imzolandi.

Jumladan:

- Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim;
- Davlat chegaralari orqali tovarlar va transport vositalarining o'tishi haqida oldindan axborot almashish to'g'risidagi bayonna;
- Mehnat va bandlik sohasida hamkorlik to'g'risidagi anglashuv memorandum;
- Sud ekspertizasi sohasida hamkorlik memorandum;
- Qurilish sohasida anglashuv memorandum;
- sog'liqni saqlash vazirliklari o'rtaida 2022-2023-yillarga mo'ljallangan Harakatlar rejisi;
- O'zbekiston Milliy axborot agentligi bilan Turkiyaning "Anadolu" agentligi o'rtaida Hamkorlik bitimi.



Manba